

“O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati 2023 yil uchun korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi haqida
UMUMIY HISOBOT¹

I. Jamiyatning korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi baksiyadorlik jamiyati arilgani to‘g‘risida umumiy axborot

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi «Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-240-sonli qaroriga muvofiq **korrupsiyaviy omillarni aniqlash, baholash va bartaraf** etish ishlari tashkil etish, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashda inson omilini qisqartirish va tegishli funksiyalarni raqamlashtirish, shaffoflikni ta‘minlash, jamoatchilik nazoratini yo‘lga qo‘yish maqsadida 2023 yilda temir yo‘l tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash ishlari O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentlik bilan birgalikda «**E-Anticor.uz**» elektron platformasi orqali amalga oshirildi. Buning natijasida:

-“O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati korrupsiyaviy **xavf-xatarlar xaritasi**;

- “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha **dasturi**;

-“O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati korrupsiyaviy **xavf-xatar yuqori bo‘lgan tuzilma va lavozimlar** ro‘yxati ishlab chiqildi.

Bundan tashqari, 2023 yil uchun tasdiqlangan -“O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi baksiyadorlik jamiyati arilishi yuzasidan tegishli korxonalar va tashkilotlardan hujjatlar umumlashtirildi/

Shu bilan birga, “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati va uning tarkibiy bo‘linmalarida 2023 yil davomida korrupsiyaga nisbatan muvofiq munosabatni shakllantirish uchun davlat organlari vakillari ishtirokida 38 yig‘ilish tadbirlari amalga oshirildi, jumladan:

- markaziy apparat bo‘yicha – 2 ta;
- hududiy bo‘linmalar bo‘yicha – 14 ta;
- tarkibiy bo‘linmalar bo‘yicha – 22 ta.

II. Siyosat va tartib taomillar

“O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisining 1228-N-sonli buyrug‘i asosida Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha **Siyosati** tasdiqlangan.

“O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisining 647-N-sonli buyrug‘i asosida jamiyatning quyidagi korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha **asosiy ichki idoraviy xujjatlari** qabul qilingan:

1. Korrupsiyaviy **xavf-xatarni baholash USLUBIYOTI**;
2. Boshqarma, korxonalar va tashkilotlarida **manfaatlar to‘qnashuvini** boshqarish bo‘yicha **NIZOM**;
3. Aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan

¹ “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati asosiy faoliyat korhonalari

xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish REGLAMENTI;

4. Boshqarma, korxonalar va tashkilotlari xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi **kurashish sohasida o‘qitilishini** tashkil qilish bo‘yicha YO‘RIQNOMA;

5. Boshqarma, korxonalar va tashkilotlarida **kontragentlarni tekshirishga** oid YO‘RIQNOMA;

6. Boshqarma, korxonalar va tashkilotlariga ishga qabul qilinayotgan **nomzodlarni tekshirish** bo‘yicha YO‘RIQNOMA;

7. Boshqarma, korxonalar va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi tartib-
taomillarning samaradorligini **monitoring va nazorat qilish** USLUBIYA TI;

8. Boshqarma, korxonalar va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to‘g‘risidagi **hisobotni shakllantirish va taqdim etish** bo‘yicha NIZOM;

9. Boshqarma, korxonalar va tashkilotlarida xodimlarning korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan **xizmat tekshiruvlari o‘tkazish** bo‘yicha REGLAMENT qabul qilindi.

Shuningdek, jamiyatning “Jamiyatning odob-axloq qoidalariga rioya etilishiga doir ichki idoraviy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 1015-N-sonli buyrug‘i asosida quyidagi hujjatlar qabul qilingan:

- “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati xodimlarining **odob-axloq** Kodeksi;

- Jamiyatning **odob-axloq komissiyasi** to‘g‘risidagi nizom;

- Jamiyatning **odob-axloq komissiyasi tarkibi**.

III. Xavf-xatarlarni baholash

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi "Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi 240-sonli Qarori ijrosi yuzasidan «O‘zbekiston temir yo‘llari» aksiyadorlik jamiyati va uning barcha tarkibiy tuzilmalari bo‘yicha asosiy vazifa va funksiyalarining korrupsiyaga moyillik darajasi baholandi. Baholash natijasida Jamiyatning boshqarma, korxonalar va tashkilotlarining jami markaziy boshqaruv apparati, hududiy va tarkibiy bo‘linmalari kesimida **209 ta funksiyalari** soni quyidagi ko‘rinishga ega:

Markaziy boshqaruv apparati – 42 ta;

Buxoro, Samarqand, Navoiy viloyatlari – 10 ta;

Toshkent sh., Toshkent, Sirdaryo, Jizzax viloyatlari – 8 ta;

Qashqadaryo viloyati – 12 ta;

Surxondaryo viloyati – 13 ta;

Farg‘ona, Andijon, Namangan viloyatlari – 12 ta;

Xorazm viloyati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi – 16 ta;

Boshqa tizim tashkilotlari:

Kapital qurilish direksiyasi – 7 ta;

“Temiryo‘lyonilg‘ita‘min” boshqarmasi – 6 ta;

Axborot-hisoblash markazi – 4 ta;

Ishlarni boshqarish direksiyasi – 5 ta;

Aksiyadorlar bilan korporativ munosabatlar boshqarmasi – 16 ta;

Iqtisodiy tahlil va prognozlash boshqarmasi – 9 ta;

Tashishlarni tashkil etish boshqarmasi – 5 ta;

Yuk va tijorat ishlari boshqarmasi – 8 ta;
Moliya boshqarmasi – 11 ta;
Axborot-tahliliy media markazi – 7 ta;
Boshqaruv raisi huzuridagi kotibiyat – 4 ta;
Vagon xo‘jaligi boshqarmasi – 3 ta;
Harbiylashtirilgan qo‘riqlash boshqarmasi – 5 ta;
Transformatsiya ofisi – 5 ta;
Strategik rivojlanish, sanoat faoliyatini tashkil etish va mehnat muhofazasi boshqarmasi – 1 ta.

«O‘zbekiston temir yo‘llari» aksiyadorlik jamiyatining birlashgan korrupsiyaviy xavf-hatarlar xaritasi shakllantirildi. Unga muvofiq **2 ta** funksiyaning korrupsiyaga moyillik darajasi “**yuqori**”, **43 ta** “**o‘rta**” va qolgan **164 ta** funksiyaning moyillik darajasi “**past**” etib belgilandi va baholash jarayonida yangi aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlar markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo‘linmalar kesimida quyidagicha ko‘rinishga ega:

Markaziy apparat – 2 ta “yuqori”, 5 ta “o‘rta”;
Buxoro, Samarqand, Navoiy viloyatlari – 5 ta “o‘rta”;
Toshkent sh., Toshkent, Sirdaryo, Jizzax viloyatlari – 4 ta “o‘rta”;
Qashqadaryo viloyati – 8 ta “o‘rta”;
Surxondaryo viloyati – 4 ta “o‘rta”;
Farg‘ona, Andijon, Namangan viloyatlari – 3 ta “o‘rta”;
Xorazm viloyati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi – 2 ta “o‘rta”;
Kapital qurilish direksiyasi – 1 ta “o‘rta”;
“Temiryo‘lyonilg‘ita‘min” boshqarmasi – 1 ta “o‘rta”;
Axborot-tahliliy media markazi – 2 ta “o‘rta”;
Ishlarni boshqarish direksiyasi – 1 ta “o‘rta”;
Aksiyadorlar bilan korporativ munosabatlar boshqarmasi – 4 ta “o‘rta”;
Iqtisodiy tahlil va prognozlash boshqarmasi – 1 ta “o‘rta”;
Harbiylashtirilgan qo‘riqlash boshqarmasi – 2 ta “o‘rta”.

Aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni boshqarish bo‘yicha belgilangan tartibda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni oldini olish chora-tadbirlari ishlab chiqilgan hamda hududiy va tarkibiy bo‘linmalardan belgilangan chora-tadbirlarning bajarilayotganligi to‘g‘risida ma‘lumotlar olingan.

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib taomillar **Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish**

Jamiyatda 2023 yil davomida qariyb 1 100 nafar xodim manfaatlar to‘qnashuvi deklaratsiyalandi, shu jumladan delaratsiyalangan xodimlardan 461 nafari jamiyat boshqarmalari va tashkilotlari rahbarlari, ularning o‘rinbosarlari, xodimlar bo‘limi boshlig‘i, bosh hisobchilar va xaridni amalga oshiruvchi shartnomalar bilan ishlovchi mas‘ul xodimlar (keyingi o‘rinlarda - raxbar xodimlar) tomonidan va 624 nafari Jamiyatga 2023 yil davomida yangi ishga kirgan va rotatsiya bo‘lgan xodimlar tomonidan to‘ldirildi. Shu jumladan,

1. Jamiyatning markaziy apparatida jami 61 nafar, bulardan 45 nafari boshqarma boshliqlari va ularning o‘rinbosarlari tomonidan yillik delaratsiyalar, 16 nafari yangi ishga kirgan xodimlar tomonidan deklaratsiyalangan;

2. Toshkent shaxri, Toshkent, Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida jami hisobot davrida 180 nafar xodim deklaratsiyalangan. Ulardan 106 nafari raxbar xodimlar tomonidan yillik, 74 nafari yangi ishga kirgan va rotatsiya bo'lgan xodimlar tomonidan deklaratsiyalangan.

3. Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlarida 321 nafar, ulardan 40 nafari raxbar xodimlar tomonidan yillik, 281 nafari yangi ishga kirgan va rotatsiya bo'lgan xodimlar tomonidan deklaratsiyalangan.

4. Buxoro, Samarqand, Navoiy viloyatlarida jami 49 nafar, shu jumladan 25 nafari raxbar xodimlar tomonidan yillik, 24 nafari yangi ishga kirgan va rotatsiya bo'lgan xodimlar tomonidan deklaratsiyalangan.

5. Qashqadaryo viloyatida 30 nafar raxbar xodim va 4 nafar rotatsiya bo'lgan xodimlar tomonidan jami 34 nafar xodim deklaratsiyalangan.

6. Surxondaryo viloyatida jami 49 nafar raxbar xodimlar deklaratsiyalandi.

7. Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasida jami 11 nafar ulardan 2 nafari raxbar xodimlar, 9 nafari yangi ishga kirgan xodimlar deklaratsiyalangan.

8. Jamiyatning boshqa tizim tashkilotlari tomonidan jami 380 nafar xodim, shu jumladan 164 nafari raxbar va 216 nafari yangi ishga kirgan va rotatsiya bo'lgan xodimlar tomonidan deklaratsiyalangan.

2023 yil davomida deklaratsiyalangan xodimlar o'tgan 2022 yilda deklaratsiyalangan jami 105 nafar xodim bilan taqqoslanganda jami 980 nafar xodim 2023 yilda ko'proq deklaratsiyalangan. Bu ko'rsatkich 10,33 barobar ko'proq yoki 1033% tashkil etmoqda.

Hisobot davrida deklaratsiyalangan xodimlar tahlil qilinganda Buxoro viloyatida 3 nafar manfaatlar to'qnashuvi holati aniqlandi va bartaraf etilishiga erishildi.

Korrupsiyaga qarshi qoidalarni jamiyat shartnomalariga kiritish

Jamiyat tomonidan 2023 yilda tuzilgan shartnomalar O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni asosida Yurudik hizmat hodimlari tomonidan amalga oshirilgan. Unga ko'ra xo'jalik shartnomalariga korrupsiyaga qarshi qoidalar kiritilgan bo'lib, ko'rsatilgan shartlar amaldagi qonunchilik asosida tuzilgan va shartlarni buzgan tomon qonun oldida javob berishi ko'zda tutilgan.

Kontragentlarni tekshirish

Jamiyat va uning tizim tashkilotlari tomonidan 2023 yilda reja asosida Jamiyatning 16 nafar boshqarma, korxonalar va tashkilotlari o'rganilganda davlat xaridlarini amalga oshirish uchun jami 18 257 dona shartnomalar imzolanganligi aniqlandi. O'rganish davomida tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan materiallarga ko'ra:

1. Markaziy apparat tomonidan 31 marta tender o'tkazilib ularda 121 nafar kontragenlar ishtrok etgan. O'tkazilgan tenderlardan 70 nafar kontragentlarga salbiy va 51 nafari ijobiy hulosalar berilgan. Bundan tashqari o'tkazilishi rejalashtirilgan 9 nafar tenderda ishtrokchilar qatnashmaganligi yoki bir nafar ishtrokchidan ko'proq yig'ilganligi sababli bekor qilingan. Kontragentlarni tekshirish jarayonida 58% salbiy va 42% ijobiy hulosalar berilgan.

2. Jamiyatning tarkibiy bo'linmalari tomonidan taqdim qilingan ma'lumotlarga ko'ra o'tkazilgan kontragentlarni tekshirish jarayonida salbiy hulosalar bo'lmagan.

Ishga nomzodlarni tekshirish

Hisobot davrida jamiyatning markaziy apparat, hududiy va tarkibiy bo'linmalariga ishga kirish uchun nomzodlar ustidan o'tkazilgan tekshiruvlar soni qariyb 1 100 tani tashkil etadi. Shundan, 224 nafar nomzodga salbiy xulosa berilgan.

V. Ta'lim va kommunikatsiya

Korrupsiyaga qarshi kurashish muntazam ravishda huquqiy ongini va madaniyatni yuksaltirishni talab etadi. Shu bois, Jamiyat xodimlari huquqiy savodxonligi va ongini rivojlantirish, halollik, poklik, ko'nikmalarini singdirish orqali korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida qariyb **2 ming** nafar xodim korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitildi, jumladan:

T/r	Kesimlar ko'rinishlari	O'qitish turlari		Jami
		Bevosita umumiy	Maxsus	
1	Markaziy apparat bo'yicha, hodimlar	110	14	124
2	Hududiy bo'linmalar bo'yicha, hodim jumladan			
2.1	Buxoro, Samarqand, Navoiy viloyatlari	246	2	248
2.2	Toshkent sh., Toshkent, Sirdaryo, Jizzax viloyatlari	605	3	608
2.3	Qashqadaryo viloyati	168	2	170
2.4	Surxondaryo viloyati	338	2	340
2.5	Farg'ona, Andijon, Namangan viloyatlari	61	2	63
2.6	Xorazm viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi	55		55
3	Boshqa tizim tashkilotlari, hodimlar			
3.1	"Temiryo'lyonilg'ita'min" boshqarmasi	12	4	16
3.2	Axborot-hisoblash markazi	8	1	9
3.3	Ishlarni boshqarish direksiyasi	10	1	11
3.4	Axborot-tahliliy media markazi	6		6
3.5	Harbiylashtirilgan qo'riqlash boshqarmasi	60	1	61
3.6	"O'ztemiryo'lhisob" markazi	11	1	12
3.7	"O'zbektemiryo'lekspeditsiya" UK	3		3
3.8	Boshqalar	21	2	23
	Jami jamiyat bo'yicha, hodimlar	1 714	36	1 750

Jamiyat xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitish uchun reja-grafiklar, o'quv dasturlari hamda mavzular tematikasi, test savollari ishlab chiqildi hamda mavzularga doir prezentatsiyalar tayyorlanib amalda tadbiq etildi.

Yuqorida bayon etilganlarni umumlashtirganda 2023 yil davomida korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha Jamiyatning **umumiy o'qitilgan xodimlari** soni qariyb **2 ming** nafarni, **maxsus o'qitilgan xodimlari** soni esa **36 nafarni** tashkil etdi. Barcha maxsus o'qitish turini tugallagan xodimlar sertifikatlarga ega bo'ldilar va shu bilan xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitish rejasi to'liq bajarildi.

O'tkazilgan o'qitish sohasida amalga oshirilgan ishlar qatorida O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining iyun oyida Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligi va Bosh prokuratura bilan hamkorlikda tashkil etilgan **"Davlat organlari va**

tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalarining faoliyati tahlili, muammolar va takliflar” mavzusidagi seminarida Jamiyatning 2 nafar xodimi hamda avgust oyida “Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalarining faoliyati, moliyaviy boshqaruvni raqamlashtirish va korrupsion risklarni kamaytirish” mavzusida o‘tkazilgan seminar yig‘ilishida 1 nafar xodim qatnashib, mavzuga doir o‘zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar. Avgust oyida o‘tkazilgan tadbirlardan yana biri **Konrad Adenauer** jamg‘armasining O‘zbekistondagi vakolatxonasi hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligi tomonidan tashkil etilgan “Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyani oldini olish va “komplaens-nazorat” tizimini samarali joriy etish” mavzusidagi seminar-treningda Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasining 5 nafar xodimi to‘g‘ridan to‘g‘ri hamda onlayn ishtirok etdi va tegishli sertifikatlar qo‘lga kiritildi.

Bundan tashqari, 2023 yil oktabr oyida tashkil etilgan maxsus o‘quv kurslarida qatnashgan jami 36 nafar Jamiyat tarkibiga kiruvchi tashkilot va korxonalar xodimlari o‘qish davomida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki idoraviy hujjatlar talablari va korrupsiyaga qarshi kurashishda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar to‘g‘risida yanada chuqurroq bilimga ega bo‘ldilar. Kurs yakunida test-sinovlarini muvaffaqiyatli topshirgan xodimlarga maxsus sertifikatlar taqdim etildi.

2023 yil 3 noyabr kuni Toshkent shahrida Respublika korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining ish-rejasini bajarilishini ta‘minlash maqsadida o‘tkazilgan **“III Toshkent Aksilkorrupsiya Forumi”ning** asosiy sessiyalarida Jamiyatning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi mas‘ul xodimi – Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi boshlig‘i ishtirok etdi.

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi va rivojlanishi uchun uning mas‘ul 4 nafar xodimlari korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tashkil etilgan **ISO 37001:2016** xalqaro menejment tizimiga asoslangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha trening kurslarini o‘quv kurslarini muvaffaqiyatli tugatdilar hamda **«Cert Academy»** xalqaro trening kompaniyasining maxsus sertifikatlariga ega bo‘ldilar. «Создание и внедрение эффективных антикоррупционных комплаенс-систем в государственных организациях и учреждениях» mavzusidagi treningda ishtirok etgan Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasining 1 nafar tinglovchisi xalqaro huquqiy va konsalting xizmatlarini ko‘rsatuvchi **KPMG korporatsiyasining sertifikatiga** ega bo‘ldi.

Respublikamizda har yili o‘tkazilishi belgilangan **“9-dekabr Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash kuni”**ga bag‘ishlab Jamiyatda o‘tkazilgan aksilkorrupsiya media haftaligi tadbiri yig‘ilishida ham 180 nafar ishchi-xodimlar qatnashdilar. Tadbirga tashrif buyurgan O‘zbekiston Respublikasi Transport prokuraturasi vakili A.V. Sadigov hamda Halq deputatlari Toshkent shahar Kengashi raisi o‘rinbosari T.B. Matibaevlar ishchi-xodimlar korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishlari uchun yanada chuqur zamin yaratuvchi nutq so‘zladilar.

VI. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar va huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi xabarlar

“O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasiga korrupsiya holati haqida 2023 yil davomida aloqa kanallari orqali jami **64 ta murojaatlar** kelib tushgan bo‘lib, hududlar kesimida quyidagicha ko‘rinishga ega:

1. Toshkent shahri – 28 ta
2. Toshkent viloyati – 3 ta
3. Qashqadaryo viloyati – 5 ta
4. Surxondaryo viloyati – 5 ta
5. Samarqand viloyati – 3 ta
6. Jizzax viloyati – 3 ta
7. Buxoro viloyati – 3 ta
8. Xorazm viloyati - 2 ta
9. Navoiy viloyati – 5 ta
10. Qo‘ng‘irot tumani – 1 ta
11. Andijon viloyati – 3 ta
12. Sirdaryo viloyati – 1 ta
13. Farg‘ona viloyati – 2 ta

VII. Monitoring va nazorat

Jamiyatning boshqarma, korxonalar va tashkilotlarida hisobot davrida jami yillik rejaga asosan **16 marotaba nazorat o‘rganishlari** o‘tkazildi. Reja asosida o‘tkazilgan o‘rganishlar hududiy va tarkibiy bo‘linmalar kesimida quyidagicha ko‘rinishga ega:

Toshkent sh., Toshkent, Sirdaryo, Jizzax viloyatlari – 12-21 iyul;

Farg‘ona, Andijon, Namangan viloyatlari – 27 iyul – 4 avgust;

Surxondaryo viloyati – 14-21 avgust;

Qashqadaryo viloyati – 22-30 avgust;

Buxoro, Samarqand, Navoiy viloyatlari – 6-14 sentabr ;

Xorazm viloyati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi – 20-29 sentabr;

Yo‘l xo‘jaligi boshqarmasi 2 oktabr – 22 dekabr;

Temiryo‘lyonilg‘ita‘min boshqarmasi - 2 oktabr – 22 dekabr;

“O‘zbekiston” lokomotiv deposi - 2 oktabr – 22 dekabr;

Kapital qurilish direksiyasi - 2 oktabr – 22 dekabr;

Maxsus direksiya - 2 oktabr – 22 dekabr;

Ishlarni boshqarish direksiyasi - 2 oktabr – 22 dekabr;

Harbiylashtirilgan qo‘riqlash boshqarmasi - 2 oktabr – 22 dekabr;

Axborot hisoblash markazi - 2 oktabr – 22 dekabr;

Axborot tahliliy media markazi - 2 oktabr – 22 dekabr;

Temiryo‘lhisob markazi - 2 oktabr – 22 dekabr;

Monitoring ishlari xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qabul qilingan ichki idoraviy hujjatlardan xabardorligi, ichki idoraviy hujjatlarning o‘z faoliyatiga tatbiq etilganligi, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasiga mas‘ul xodim tayinlanganligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligiga topshiriladigan hisobot indikatorlarining to‘g‘ri to‘ldirilayotganligi yuzasidan o‘tkazildi.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta‘sir choralari

“O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasiga **2023 yil** davomida kelib tushgan **64 ta murojaatlar** o‘rganilib, 2 ta murojaat bo‘yicha to‘plangan hujjatlar **huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim etilgan**, 7 ta murojaat **anonim** deb topilib ko‘rmasdan qoldirilgan, 2 tasi murojaatchining

shaxsiy arizasiga binoan **ko‘rmasdan qoldirilgan**, 11 ta murojaat yuzasidan **xizmat tekshiruv** o‘tkazilgan va xizmat tekshiruv xulosasi bo‘yicha 1 nafar rahbar xodim egallab turgan **lavozimidan ozod qilinib**, boshqa lavozimga o‘tkazilgan, 1 ta murojaat bo‘yicha xodimga ishlamagan davri uchun to‘langan summani qaytarib olish uchun **fuqarolik sudiga davo arizasi kiritilgan** hamda xodimga tungi navbatchilik uchun noto‘g‘ri yozilgan ish haqi xodimning o‘z arizasiga binoan korhona hisobiga **undirilmoqda**, qolgan 40 ta murojaat bo‘yicha tegishli mutaxassislar tomonidan **tushuntirishlar** berilgan.

Korrupsiya faktlariga doir kelib tushgan murojaatlardan kelib chiqib korrupsion xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha ko‘rilgan choralar quyidagilardan iborat:

1. O‘z vaqtida **xizmat safarlari** tashkil etildi.
2. Har bir murojaat bo‘yicha hujjatlar **tegishli mutaxassislar** tomonidan o‘rganildi.
3. Murojaatchilar bilan tegishli mutaxassislar o‘zaro bog‘langan holda **kerakli ma’lumotlar va tegishli hujjatlar** o‘rganib chiqildi.
4. Xizmat safarlari mobaynida **tushuntirish ishlari** olib borildi.

IX. Xulosalar

“O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida ishlab chiqilgan mexanizmlar o‘zining ijobiy samarasini bermoqda. Xususan, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”, odob-axloq qoidalari, manfaatlar to‘qnashuvini dekloratsiyalash, ochiqlikni ta‘minlash kabi chora-tadbirlar ichki nazorat tizimining sohada korrupsiya xavfini sezilarli darajada kamayishiga va turli xil korrupsiyaviy qonunbuzarliklarning o‘z vaqtida bartaraf etilishiga sabab bo‘lmoqda.

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasining tashkil etilganligi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni aniqlash va ularni o‘z vaqtida bartaraf etilishida ijobiy samara bermoqda.

Shuningdek, jamiyat xodimlari o‘rtasida korrupsiyani oldini olish ishlarini samarali yo‘lga qo‘yish, huquqiy ongni shakllantirish, qonun normalari talablariga rioya qilishni ta‘minlash maqsadida yanada ko‘proq o‘qitish va tushuntirish ishlarini olib borish rejalashtirilgan.

X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha takliflar va tadbirlar rejasi

“O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati korrupsiya qarshi kurashish boshqarmasi korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha quyidagilarni taklif etadi:

✓ jamiyatda shartnomaviy munosabatlarni **ochiq amalga oshirish** mexanizmlarini yanada takomillashtirish va **manfaatlar to‘qnashuvi** holatlarini oldini olish;

- ✓ jamiyat faoliyatida **raqamli texnologiyalarni** keng joriy qilish;
- ✓ **ochiqlik** tamoyillariga amal qilgan holda faoliyat olib borishni ta‘minlash;
- ✓ jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul **qilingan ichki idoraviy hujjatlari talablariga qat’iy rioya** qilish;
- ✓ **jahon andozalari darajasida** xizmat ko‘rsatish, transport xizmatlari bozorida

temir yo‘l transportining raqobatbardoshligini oshirish;